



O'zbekiston respublikasi ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'zbek tili fanini o'qitishda samaradorlikni oshiruvchi interaktiv metodlardan foydalanish

N.Shanazarova, Samarqand viloyati Pedagogik mahorat
markazi, Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi, o'zbek tili fani metodisti

METOD

Ta'lim maqsadiga erishish uchun tanlangan umumiy yo'l, strategiya yoki tizimli yondashuvdir.

U darsning butun jarayonini qamrab oladi.

Metod:

- keng qamrovli
- maqsadga yo'naltirilgan
- bir nechta usullarni o'z ichiga olgan
- darsning mantiqiy yo'nalishini belgilaydi

****Muammoli ta'lim metodi***

****Loyiha metodi***

****Hamkorlikda o'qitish metodi***

****Interfaol ta'lim metodi***



USUL

Metodni amalga oshirishda qo'llaniladigan aniq harakat, amaliy qadam yoki texnikadir. U darsning ma'lum bir bosqichida ishlatiladi.

Usul:

- tor tushuncha
- qisqa muddatli
- aniq faoliyatni ifodalaydi
- metod ichida qo'llaniladi

****Savol-javob***

****Aqliy hujum***

****Bahs-munozara***


****Guruh bilan ishlash***

****Klaster tuzish***



INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH- MUVAFFAQIYATLI DARS GAROVI

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ayniqsa, o'zbek tili fanini o'qitishda faqat qoidani yodlatish emas, balki o'quvchini fikrlovchi, tahlil qiluvchi va erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllantirish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



INTERAKTIV METODLARNING TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Interaktiv metodlar — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan, o'quvchini dars jarayonining markaziga qo'yadigan o'qitish usullari hisoblanadi.



Ushbu metodlar:

- o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi;
- grammatik tushunchalarni ongli o'zlashtirishga yordam beradi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI



Interaktiv metodlar yordamida tashkil etilgan o'zbek tili darslarida:



- o'quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi

- bilimlar mustahkam va ongli o'zlashtiriladi

- dars sifati va natijadorligi oshadi

- nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI MATN TUZISHDAGI KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHGA QARATILGAN USULLAR

“Aqlli alifbo” usuli



Harf “U” raqam 4

Uzum



“MEN HAQIMDA GAPIR” USULI

Kamida 6 kishi ishtirok etadi. Kartochkaga ism yoziladi va teskari qilib qo'yilgan kartochkalardan o'quvchi qaysi ismni olsa, shunga tegishli ma'lumotni diqqat bilan tinglab, to'ldirib qayta aytish topshirig'i beriladi.



“Mening ismim Nigora. Alisher Navoiy “Xamsa” sining “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) dostoni- “Xamsa”ning yakunlovchi va hajm jihatdan eng yirik dostoni, unda ma’rifatli shoh Iskandar Zulqarnaynning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.”

“ICHKI VA TASHQI DOIRA”



Ushbu metoddan o'qituvchi darsning “Motivatsion”, “Asosiy qism”, “Darsni mustahkamlash” va “Refleksiya” qismlarida o'rta hamda yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazishi mumkin.

Jarayon oxirida joylar almashtirilib, yangi muhokama boshlanishi mumkin.

YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN USULLAR

“Kakografiya” usuli

Bunda o‘quvchilarga turli so‘zlarning xato yozilgan shakli taqdim etiladi. O‘quvchilar esa so‘zlarni imloviy jihatdan to‘g‘irlab yozishlari kerak

Xato :

Jaxldor

Koyinot

Gigiena

Bahshi



To‘g‘ri :

Jahldor

Koinot

Gigiyena

Baxshi

"IMLOVIY MARAFON"

Bu metodda sinfdan eng bilimdon 3 nafar o'quvchi ajratib olinadi, qolgan o'quvchilar 3 ta guruhga ajratiladi. Ajratib olingan o'quvchilar bittadan guruhga nazoratchi bo'lishadi.



Nazoratchi o'quvchilar berilgan vaqt ichida guruh o'quvchilariga turli harflari tushib qolgan so'zlarni ko'rsatadi. O'quvchilar ulardagi bo'sh joylarni to'g'ri to'ldirishi kerak





**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**